



TRANSPORT VA AVTOMOBILSOZLIK SOHALARIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

AVTOTRANSPORT VOSITALARI MEXANIKLARI



“Avtotransport vositalari mexaniklari” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Transport sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Avtotransport vositalari mexaniklari

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0133



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu kasbiy standart "Avtotransport vositalari mexanigi" va "Avtotransport vositalarining mexatronikasiga xizmat ko'rsatuvchi mexanik" kasbi bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni tanlash, ularning malakasini oshirish va mehnat faoliyatini baholash kabi kadrlar boshqaruvi sohasidagi keng ko'lamli vazifalarni hal etishda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

avtotransport vositasi – yo'l harakati uchun mo'ljallangan, mexanik harakatga ega bo'lgan transport vositasi.

baholash mezonlari – kasbiy malakani aniqlash jarayonida qo'llaniladigan, bilim, ko'nikma va malakalarni o'lchash uchun belgilangan talablar majmui.

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy kompetensiya – belgilangan kasbiy faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlar yig'indisi.

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

texnik xizmat ko'rsatish – avtotransport vositasining ishlashga yaroqliligini saqlash, nosozliklarni oldini olish yoki bartaraf etish bo'yicha muntazam amalga oshiriladigan ishlar majmui.

transport xavfsizligi – yuk va yo'lovchi tashish jarayonida haydovchi, yo'l harakati ishtirokchilari va atrof-muhit xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy va texnik choralar tizimi.

yo'l harakati qoidalari – yo'l harakati ishtirokchilari uchun belgilangan majburiy me'yor va talablar majmui.

Yo'l harakati xavfsizligi – yo'llarda harakatlanish jarayonida inson hayoti, sog'ligi va mulkini himoya qilishni ta'minlaydigan huquqiy, tashkiliy va texnik choralar tizimi.

yuk tashish hujjatlari – yukni tashish, qabul qilish, topshirish va nazorat qilish jarayonini rasmiylashtiruvchi hujjatlar (yo'l varaqasi, yuk xati, hisob-faktura va boshqalar).

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-apreldagi "Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida" 419-I-sonli Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Avtomobil transporti to'g'risida" 674-I-sonli Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-martdagi "Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3589-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-59-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablarni tasdiqlash haqida"gi 482-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-sentabrdagi "Davlat avtovokzallari va avtostansiyalarini boshqarish samaradorligini ta'minlashga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 712-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-iyuldagi "Avtomobil transportida yo'lovchilarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro, shuningdek yuklarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 636-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-dekabrdagi "Avtomobil transportida yo'lovchi tashish yo'nalishlari bo'yicha ochiq tenderlarni elektron tarzda tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 738-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 18-martdagi "Jamoat transportini moliyalashtirishning yangi tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 116-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-sentabrdagi "Transport sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyat tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 504-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "Kasbiy malakalarni rivojlantirish tizimini tashkil etish va boshqarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-369-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 9-oktabrda 1282-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Chipta-hisob va yo'l varaqalarini to'ldirish bo'yicha yo'riqnoma".

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

T/r – tartib raqami.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Avtotransport vositalari mexaniklari	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Avtotransport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish ularni yo'lda harakatlanishi uchun yetarli darajada tekshiruvdan o'tkazish ishlarini amalga oshiradi	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	H Seksiyasi Tashish va saqlash; 49 Quruqlikdagi va quvur transporti; 49.3 Quruqlikdagi boshqa yo'lovchi transporti; 49.31 Jadvalga muvofiq avtomobil transportida yo'lovchi tashish; 49.31.0 Jadvalga muvofiq avtomobil transportida yo'lovchi tashish; 49.33 Haydovchi bilan transport vositasida talab bo'yicha yo'lovchi tashish xizmati faoliyati; 49.33.0 Haydovchi bilan transport vositasida talab bo'yicha yo'lovchi tashish xizmati faoliyati; T seksiya Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish; 95 Kompyuterlarni, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni hamda motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish; 95.3 Motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish; 95.31 Motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish; 95.31.1 Yengil avtomobillarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish 95.31.2 Boshqa avtomobillarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish; 95.31.9 Boshqa toifaga kiritilmagan motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Ushbu kasbiy standart avtobuslarni reysdan oldin va keying texnik holatini tekshirishni amalga oshiradi. Avtobuslarni sanitariya va texnik holatini tekshirib nosoz avtomobillarni yo'nalishdan olib tashlash bo'yicha ogohlantirish beradi. Yo'lovchi tashish jarayonida haydovchi yo'lovchilarning xavfsiz tushishi va chiqishini ta'minlashi, favqulodda vaziyatlarda tezkor va to'g'ri harakat qilishi hamda transport vositasida ichki tartib va xavfsizlik talablariga rioya etilishini nazorat qilishi zarur. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bilan bog'liq ishlar transport vositasining dvigatel, tormoz, uzatma va elektr tizimlarini tekshirish, nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Ish xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablariga qat'iy amal qilish majburiy bo'lib, bu yo'l harakati ishtirokchilari, yuk va transport vositasi xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		72311001 Avtotransport vositalari mexanigi	3
		72311002 Avtotransport vositalarining mexatronikasiga xizmat ko'rsatuvchi mexanik	3

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi:	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	72311001- Avtotransport vositalari mexanigi	A1.3	Avtobuslarning texnik sozligi, xavfsiz ishlashi va sanitariya holatini ta'minlash maqsadida reys oldi va reysdan keyingi texnik ko'rikni o'tkazish hamda nosoz avtobuslarni aniqlab, ularni reysga chiqarishni cheklash	A1.01.3	Avtobus saroyida harakat xavfsizligini ta'minlaydigan uzellar va agregatlarni tekshirish uchun reys oldi va reysdan keyingi texnik ko'rikni amalga oshirish
				A1.02.3	Avtobuslardan to'g'ri va xavfsiz texnik foydalanilishini tekshirish
				A1.03.3	Avtobuslarning sanitar-texnik holatini tekshirish
				A1.04.3	Texnik nosozliklar mavjud bo'lsa, nosoz avtobuslarni aniqlash va ularni reysga chiqishdan chetlashtirish
		A2.3	Avtobuslar texnik nazoratini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda texnik ko'rik natijalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirib, tegishli hujjatlarni yuritish.	A2.01.3	Avtobuslarning texnik nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish
				A2.02.3	Qonunchilik talablariga muvofiq hujjatlarni yuritish
2	72311002 - Avtotransport vositalarining mexatronikasiga xizmat ko'rsatuvchi mexanik	B1.3	Avtotransport vositalarining mexatronik tizimlari (elektron, elektr va mexanik boshqaruv tizimlari)ning soz ishlashini ta'minlash, diagnostika qilish va texnik xizmat ko'rsatish	B1.01.3	Avtotransport vositalarining mexatronik tizimlarini diagnostika qilish va texnik holatini tekshirish
				B1.02.3	Elektron boshqaruv tizimlari, sensorlar va aktuatorlarning ishlashini nazorat qilish
				B1.03.3	Aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish va sozlash ishlarini bajarish
				B1.04.3	Mexatronik qurilmalarga profilaktik texnik xizmat ko'rsatish
		B2.3	Mexatronik tizimlarga xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish va texnik hujjatlarni yuritish	B2.01.3	Mexatronik tizimlarni ta'mirlash va sozlash ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish
				B2.02.3	Diagnostika va ta'mirlash natijalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish
				B2.03.3	Texnik hujjatlar va xizmat ko'rsatish bo'yicha hisobotlarni yuritish
				B2.04.3	Mexatronik tizimlarning ishlashini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Avtotransport vositalari mexanigi	
Mashg'ulot nomining kodi:	72311	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	3-daraja uchun ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: Ishga 18 yoshga to'lganlar qabul qilinadi. Ishga munosabat va xulq-atvor: rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; belgilangan vazifalarni ish vaqtdan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; jamoalar bilan inoq ishlash; o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) boshlang'ich professional ta'lim; 2) o'rta maxsus ta'lim.	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	–	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-6 razryadli	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3 - Avtobuslarning texnik sozligi, xavfsiz ishlashi va sanitariya holatini ta'minlash maqsadida reys oldi va reysdan keyingi texnik ko'rikni o'tkazish hamda nosoz avtobuslarni aniqlab, ularni reysga chiqarishni cheklash	A1.01.3 Avtobus saroyida harakat xavfsizligini ta'minlaydigan uzellar va agregatlarni tekshirish uchun reys oldi va reysdan keyingi texnik ko'rikni amalga oshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Avtobuslarni reys oldi va reysdan keyingi texnik ko'rikdan o'tkazish.
		2. Harakat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy uzal va agregatlarning (tormoz tizimi, rul boshqaruvi, yoritish moslamalari va boshqalar) texnik holatini tekshirish. Harakat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy uzal va agregatlarning (tormoz tizimi, rul boshqaruvi, yoritish moslamalari va boshqalar) texnik holatini tekshirish.
		3. Avtotransport vositasida mavjud texnik nosozliklarni aniqlash.
		Ko'nikma:
		Avtobuslarning asosiy uzal va agregatlari texnik holatini aniqlay olish
		Texnik ko'rik jarayonida diagnostika vositalaridan foydalanish.
		Aniqlangan nosozliklarni baholash va ularni bartaraf etish bo'yicha choralarni belgilash.
		Bilim:
		Avtobuslarning tuzilishi va asosiy uzal hamda agregatlarning ishlash prinsiplari
		Avtotransport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi Harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha me'yoriy talablar.
		Harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha me'yoriy talablar.
	A1.02.3 – Avtobuslardan to'g'ri va xavfsiz texnik foydalanilishini tekshirish	Mehnat harakatlari:
		Avtobuslarning texnik ekspluatatsiya qoidalariga muvofiq foydalanilishini nazorat qilish.
		Transport vositalarining asosiy tizimlari va agregatlarning ishlash holatini tekshirish.
		Texnik foydalanish jarayonida aniqlangan holatlar bo'yicha tegishli qaydlar va hujjatlarni rasmiylashtirish.
		Ko'nikma:
		Avtobuslarning texnik holatini baholay olish.
		Transport vositalaridan to'g'ri foydalanish jarayonini nazorat qilish.
		Nosozlik va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish.
		Bilim:

		Avtobuslarning tuzilishi va ishlash prinsiplari.
		Avtotransport vositalaridan texnik foydalanish qoidalari.
		Yo'l harakati xavfsizligi va transport ekspluatatsiyasi bo'yicha me'yoriy talablar
	A1.03.3 - Avtobuslarning sanitar-texnik holatini tekshirish	Mehnat harakatlari:
		Avtobus salonining tozaligi va sanitariya holatini tekshirish.
		Avtobus ichki jihozlari (o'rindiqlar, tutqichlar, pol qoplamasi, oynalar va boshqalar)ning texnik va gigiyenik holatini nazorat qilish.
		Aniqlangan kamchilik va nosozliklar bo'yicha tegishli choralar ko'rish hamda ularni bartaraf etish uchun mas'ullarga ma'lumot berish.
		Ko'nikma:
		Avtobuslarning sanitar va texnik holatini baholay olish.
		Transport vositalarining ichki jihozlari va tizimlarini tekshirish
		Tekshiruv natijalarini hujjatlashtirish.
		Bilim:
		Avtotransport vositalariga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari.
		Avtobus salonining tuzilishi va ichki jihozlari.
	A1.04.3Texnik nosozliklar mavjud bo'lsa, nosoz avtobuslarni aniqlash va ularni reysga chiqishdan chetlashtirish	Mehnat harakatlari:
		Avtobuslarning texnik holatini tekshirish va nosozliklarni aniqlash
		Harakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi nosozliklarni baholash.
		Texnik nosozligi mavjud avtobuslarni reysga chiqarishni taqiqlash.
		Ko'nikma:
		Avtobuslarning texnik nosozliklarini aniqlay olish.
		Harakat xavfsizligiga ta'sir qiluvchi texnik kamchiliklarni baholash.
		Texnik nazorat natijalarini hujjatlashtirish.
		Bilim:
		Avtobuslarning tuzilishi va asosiy uzal hamda agregatlarning ishlash prinsiplari.
		Avtotransport vositalarining texnik ekspluatatsiya qoidalari.
		Harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha me'yoriy talablar.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Avtobusning texnik jihatdan soz holatda yo'nalishchiqarilishi uchun javob beradi. 2. Aniqlangan nosozliklarni hujjatlarda to'g'ri qayd etish uchun javob beradi.

A.2.3 Avtobuslar texnik nazoratini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda texnik ko'rik natijalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirib, tegishli hujjatlarni yuritish.	A2.01.3 Avtobuslarning texnik nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish	Mehnat harakatlari: 1. Avtobuslarni yo'nalishga chiqish dan oldin texnik ko'rikdan o'tkazish 2. Aniqlangan nosozlik haqida ma'lumot berish va ta'mirlashga yuborish 3. Texnik ko'rik natijalarini maxsus jurnal yoki hujjatlarga qayd etish Ko'nikma: Avtobus texnik qismlaridagi nosozlikni tez aniqlay olish. Texnik ko'rikni to'g'ri va tartib bilan o'tkaza olish Avtotransport vositalari bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish Bilim: Avtobuslarning tuzilishi va ishlash prinsipini bilish Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalarini bilish Texnik ko'rikdan o'tkazish ketma-ketligini bilish
		Mehnat harakatlari: 1. Avtobuslar va texnika bilan bog'liq hujjatlarni qabul qiladi, ro'yxatdan o'tkazadi . 2. Texnik xizmat, tekshiruv bo'yicha hujjatlarni belgilangan tartibda saqlaydi 3. Zarur paytda hujjatlarni toppish uchun arxivlaydi Ko'nikma: Texnik hujjatlar bilan ishlash va ularni tartibga solish ko'nikmasi Texnik hujjatlarni saqlash ko'nikmasi Arxivlash ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash Bilim: Avtobuslar texnik ekspluatatsiyasi va texnik xizmat ko'rsatish qoidalarini bilish Avtobusning ichki tuzilishini bilish Texnik nosoz avtobuslarni hujjatlarga qayd qilib boorish
	A2.02.3 Qonunchilik talablariga muvofiq hujjatlarni yuritish.	Mas'uliyat va mustaqillik: 1. Avtobuslarning xavfsiz ishlashi va hujjatlarning qonuniy saqlanishi uchun mas'uliyatni oladi. 2. Vazifalarni mustaqil va tizimli bajaradi ,texnik va hujjat ishlarini tartibli yuritadi.
Texnik va/yoki texnologik talab		Texnik talablar

	Uskunalarni yaxshi bilish – mexanik ishlab chiqarishdagi barcha asosiy mexanik uskunalar, agregatlar va mexanizmlarning tuzilishi hamda ishlash prinsipini bilishi kerak. Nosozliklarni aniqlash – uskunalarda paydo bo'ladigan nosozliklarni tez aniqlash va ularni bartaraf etish ko'nikmasiga ega bo'lish. Ta'mirlash ishlari – joriy ta'mirlash, sozlash va profilaktik xizmat ko'rsatishni mustaqil bajara olish. Asbob-uskunalardan foydalanish – o'lchov asboblari, mexanik asboblari va diagnostika qurilmalaridan to'g'ri foydalanish. Texnik hujjatlarni tushunish – chizmalar, sxemalar, texnik pasportlar va yo'riqnomalar bilan ishlay olish. Texnologik talablar Texnologik jarayonni bilish – ishlab chiqarish jarayonining texnologik ketma-ketligini tushunish. Ish rejimiga rioya qilish – uskunalarining belgilangan ish rejimlari (harorat, bosim, tezlik va boshqalar)ga amal qilish. Profilaktik nazorat – uskunalarini doimiy kuzatib borish va avariya holatlarini oldindan aniqlash. Texnologik intizom – ishlab chiqarish reglamenti va texnologik yo'riqnomalarga qat'iy rioya qilish. Sifat nazorati – ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga ta'sir qiluvchi mexanik omillarni nazorat qilish. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. Favqulodda vaziyatlarda tezkor choralar ko'rish. Elektr va mexanik uskunalar bilan ishlashda himoya vositalaridan foydalanish.
--	--

Kasbning nomi:	Avtotransport vositalari mexatronikasiga xizmat ko'rsatuvchi mexanik	
Mashg'ulot nomining kodi:	72311	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	3-daraja uchun ish staji talab etilmaydi, ammo kamida 3 oy amaliy stajirovkadan o'tgan bo'lishi zarur;	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: Ishga 18 yoshga to'lganlar qabul qilinadi. Ishga munosabat va xulq-atvor: rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; jamo'a bilan inoq ishlash; o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) boshlang'ich professional ta'lim; 2) o'rta maxsus ta'lim.	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:	—	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	2-6 razryadli Avtotransport vositalari mexatronikasiga xizmat ko'rsatuvchi mexanik	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3 Avtotransport vositalarining mexatronik tizimlari (elektron, elektr va mexanik boshqaruv tizimlari)ning soz ishlashini ta'minlash, diagnostika qilish va texnik xizmat ko'rsatish	B1.01.3 Avtotransport vositalarining mexatronik tizimlarini diagnostika qilish va texnik holatini tekshirish	Mehnat harakatlari: 1. Avtotransport vositalarining mexatronik tizimlarini diagnostika uskunalari yordamida tekshirish. 2. Elektron boshqaruv bloklari, sensorlar va aktuatorlarning ishlash holatini nazorat qilish. 3. Tekshiruv natijalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish. 4. Mexatronik tizimlarda yuzaga kelgan nosozliklarni aniqlash va ularning sabablarini tahlil qilish.
		Ko'nikma: Mexatronik tizimlardagi nosozliklarni aniqlash va tahlil qilish.
		Elektron boshqaruv tizimlari va sensorlarning ishlashini tekshirish.
		Diagnostika natijalarini to'g'ri baholash va hujjatlashtirish.
		Bilim: Avtotransport vositalarining mexatronik tizimlari tuzilishi va ishlash prinsiplari.
		Avtotransport vositalarining texnik ekspluatatsiyasi qoidalari.
		Avtobuslar ekspluatatsiyasi va texnik holati bo'yicha asosiy tushunchalar.
		Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari.
	B1.02.3 Elektron boshqaruv tizimlari, sensorlar va aktuatorlarning ishlashini nazorat qilish.	Mehnat harakatlari: Elektron boshqaruv tizimlari va ularning komponentlarini tekshirish.
		Sensorlar va aktuatorlarning ishlash parametrlarini nazorat qilish va sinovdan o'tkazish.
		Aniqlangan kamchilik yoki nosozliklarni qayd etish va texnik xizmatga yuborish
		Nazorat natijalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish.
		Ko'nikma: Elektron boshqaruv tizimlari va ularning komponentlarini tekshirish ko'nikmasi.
		Sensorlar va aktuatorlarning ishlashini diagnostika qilish.
		Texnik hujjatlarni rasmiylashtirish va nazorat natijalarini qayd etish.

QCL7527		Nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash
		Bilim:
		Elektron boshqaruv tizimlari, sensorlar va aktuatorlar ishlash prinsiplari.
		Avtotransport vositalarining mexatronik va elektron tizimlari.
		Diagnostika vositalari va o'lchov usullari.
		Avtomobil texnik ekspluatatsiyasi va mehnat muhofazasi qoidalari.
	B1.03.3 Aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish va sozlash ishlarini bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Aniqlangan nosozliklarni texnik diagnostika natijalariga asoslanib aniqlash.
		2. Avtotransport vositalarining mexatronik, elektron va mexanik tizimlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish.
		3. Tizim va komponentlarni sozlash, qayta ishlash yoki almashtirish ishlarini bajarish.
		4. Ta'mirlash jarayonida xavfsizlik va texnika qoidalariga rioya qilish.
		Ko'nikma:
		Mexatronik va elektron tizimlardagi nosozliklarni bartaraf etish ko'nikmasi.
		Avtotransport vositalarining mexanik, elektron va boshqaruv tizimlarini sozlash
		Diagnostika natijalariga asoslanib qaror qabul qilish.
		Bilim:
		Nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish usullari.
		Avtotransport vositalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari.
	B1.04.3 - Mexatronik qurilmalarga profilaktik texnik xizmat ko'rsatish	Mehnat harakatlari:
		1. Mexatronik tizimlar va ularning komponentlarini belgilangan texnik xizmat jadvaliga muvofiq tekshirish.
		2. Mexatronik qurilmalarda profilaktik sozlash, tozalash va yog'lash ishlarini bajarish.
		3. Diagnostika vositalari yordamida tizimlarning ishlash holatini muntazam nazorat qilish.
		4. Profilaktik xizmat natijalarini qayd etish va belgilangan tartibda hujjatlashtirish.
		Ko'nikma:
		Mexatronik qurilmalarga profilaktik xizmat ko'rsatish ko'nikmasi.
		Tizimlarni tozalash, sozlash va yog'lash ishlarini bajarish.
		Diagnostika vositalari bilan ishlash.
		Texnik hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish.

		Bilim:
		Mexatronik tizimlar tuzilishi va ishlash prinsiplari.
		Avtotransport vositalarining profilaktik texnik xizmat ko'rsatish qoidalari.
		Diagnostika va texnik xizmat vositalari ishlash tamoyillari.
		Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari.
B2.3Mexatronik tizimlarga xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish va texnik hujjatlarni yuritish	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Transport vositasini boshqarish, yo'l harakati qoidalariga rioya qilish va yo'lovchilar/yuk xavfsizligini ta'minlash uchun to'liq mas'uldir.
		2. Haydash davomida tezlik, masofa va yo'l sharoitiga mos qarorlarni mustaqil qabul qiladi.
		3. Favqulodda vaziyatlarda o'z vaqtida va to'g'ri harakat qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.
		4. Harakat jarayonida texnik va yo'l xavfsizligi talablariga qat'iy amal qiladi, dispetcherlik bilan muntazam aloqa olib boradi.
	B2.01.3-Mexatronik tizimlarni ta'mirlash va sozlash ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1.Mexatronik tizimlarni ta'mirlash va sozlash ishlarini rejalashtirish va ustuvorlik bo'yicha tartibga solish.
		2.Ta'mirlash va sozlash ishlarini texnik hujjatlar va standartlarga muvofiq bajarish.
		3.Avtotransport vositalarining mexatronik, elektron va mexanik tizimlarida aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish.
		4.Ta'mirlash jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va texnik muhofazani ta'minlash.
		Ko'nikma:
		Mexatronik tizimlarni diagnostika qilish va nosozliklarini bartaraf etish.
		Ta'mirlash va sozlash ishlarini rejalashtirish va samarali bajarish.
		Mexatronik, elektron va mexanik tizimlarda texnik manipulyatsiyalarni amalga oshirish.
		Bilim:
		Mexatronik tizimlar va ularning ishlash prinsiplari.
		Avtotransport vositalarining mexatronik, elektron va mexanik komponentlarini ta'mirlash va sozlash usullari.
		Diagnostika vositalari va texnik hujjatlarni yuritish qoidalari.

	B1.02.3-Diagnostika va ta'mirlash natijalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish	Mehnat harakatlari:
		1.Mexatronik, elektron va mexanik tizimlarda diagnostika va ta'mirlash ishlarini yakunlash.
		2.Diagnostika va ta'mirlash natijalarini belgilangan shakl va tartibda hujjatlashtirish.
		3.Ta'mirlash va texnik xizmat jarayonida aniqlangan nosozliklar va ularning bartaraf etilishi haqida qaydlar yuritish.
		4.Rasmiylashtirilgan hujjatlarni tegishli bo'lim va mas'ullarga taqdim etish.
		Ko'nikma:
		Diagnostika va ta'mirlash ishlarini hujjatlashtirish ko'nikmasi.
		Texnik va ma'lumot hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirish.
		Texnik natijalarni tahlil qilish va aniqlik bilan qayd etish.
		Bilim:
		Avtotransport vositalarining mexatronik, elektron va mexanik tizimlari ishlash prinsiplari.
		Diagnostika va ta'mirlash jarayonlarini hujjatlashtirish qoidalari.
		Texnik hujjatlar shakllari va standartlari.
		Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari.
	B1.03.3-Texnik hujjatlar va xizmat ko'rsatish bo'yicha hisobotlarni yuritish	Mehnat harakatlari:
		1.Avtotransport vositalariga xizmat ko'rsatish va texnik ko'rik natijalarini belgilangan tartibda qayd etish.
		2.Texnik xizmat va ta'mirlash jarayonidagi harakatlarni rasmiy hujjatlarga yozish.
		3.Hisobot va jurnal shaklidagi hujjatlarni yuritish, saqlash va kerak bo'lganda taqdim etish.
		4.Aniqlangan nosozliklar va xizmat ko'rsatish natijalarini qayd etish.
		Ko'nikma:
		Texnik hujjatlarni yuritish va to'g'ri rasmiylashtirish ko'nikmasi.
		Hisobotlarni tuzish va qayd etish.
		Texnik xizmat va ta'mirlash jarayonlarini qayd etish.
		Bilim:
		Avtotransport vositalariga xizmat ko'rsatish va texnik ko'rik tartiblari.
		Texnik hujjatlarni yuritish va hisobot shakllari.

QCL7527		Avtotransport vositalarining mexatronik, elektron va mexanik tizimlari ishlash prinsiplari.
		Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari.
	B1.04 .3-Mexatronik tizimlarning ishlashini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish	Mehnat harakatlari:
		1.Mexatronik tizimlarning ishlashini tahlil qilish va mavjud kamchiliklarni aniqlash.
		2.Tizimlarning samaradorligini oshirish va nosozliklarni kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.
		3.Takliflarni texnik va me'yoriy jihatdan asoslash.
		4.Ishlab chiqilgan takliflarni tegishli bo'lim va mas'ullarga taqdim etish.
		5.Takliflar asosida mexatronik tizimlarni optimallashtirish choralarini tavsiya etish.
		Ko'nikma:
		Mexatronik tizimlar ishlashini tahlil qilish.
		Nosozlik va samaradorlikni aniqlash hamda taklif ishlab chiqish.
		Texnik hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish.
		Bilim:
		Avtotransport vositalarining mexatronik tizimlari tuzilishi va ishlash prinsiplar
		Mexatronik tizimlarni optimallashtirish va samaradorligini oshirish usullar
	Mas'uliyat va mustaqillik	1.Mexatronik tizimlarning uzluksiz va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etish.
		2.Qurilma va uskunalarning texnik holatini muntazam nazorat qilish, nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.
		3.Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari bo'yicha barcha texnik hujjatlarni (jurnallar, hisobotlar, sxemalar, yo'riqnomalar) to'g'ri va o'z vaqtida yuritish.
		4.Mehnat xavfsizligi qoidalari hamda texnik standartlarga qat'iy rioya etilishini ta'minlash.
		5. Amalga oshirilgan ishlar natijalarini tahlil qilish va tizim samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar kiritish.
		6.Texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun zarur usullar va

		vositalarni mustaqil tanlash. 7. Nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha qarorlarni o'z vakolati doirasida mustaqil qabul qilish.
	Texnik va/yoki texnologik talab	Mexatronik tizimlarning barcha mexanik, elektr va elektron qismlarining texnik holatini muntazam nazorat qilish. Uskunalar va qurilmalarning texnik pasportlari, sxemalari hamda foydalanish bo'yicha yo'riqnomalariga qat'iy amal qilish. Diagnostika, sozlash va ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur o'lchov asboblari hamda maxsus jihozlardan foydalanish. Tizim elementlarining ishonchliligi, aniqligi va xavfsiz ishlashini ta'minlash. Mexatronik tizimlarga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini belgilangan texnologik ketma-ketlik asosida bajarish. Profilaktik ko'rik, diagnostika, sozlash va ta'mirlash ishlarini reja asosida amalga oshirish. Barcha bajarilgan ishlar bo'yicha texnik hujjatlarni (texnik xizmat jurnali, hisobotlar, aktlar) o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirish. Ish jarayonida ishlab chiqarish texnologiyasi va standartlariga rioya qilish. Tizim samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar va dasturiy vositalardan foydalanish.

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Transport sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 7-iyul 2026 yildagi 8-sonli bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0148-sonli xulosa, 02.06.2026
3.	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 27.05.2026.
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	26.05.2031.

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot

Uzautotrans service MChJ

(tashkilot nomi)

Axmedov Javohir Jaxongir o'g'li

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	"Uzautotrans service" MChJ Bosh muxandis	Xayitboev Zoxid Asatilla o'g'li
2	"Uzautotrans service" MChJ Ishlab chiqarish texnika bo'limi boshlig'i	Isakov Sanjar Asqar o'g'li
3	"Uzautotrans service" MChJ navbatchi mexanik	Xo'jakeldiyev Komil
4	"Uzautotrans service" MChJ navbatchi mexanik	Mirsoatov Mirabbos Alisher o'g'li
5	"Uzautotrans service" MChJ navbatchi mexanik	Artiqbaev Jahongir
6	"Uzautotrans service" MChJ Xodimlar bo'limi inspektori	Ruziyeva Fazilat Zafarovna



**TRANSPORT VA AVTOMOBILSOZLIK SOHALARIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TARMOQ
KENGASHI**

KASBIY STANDART
AVTOTRANSPORT VOSITALARI MEXANIKLARI